PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

“NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARIDA XOJA BAHOUDDIN NAQSHBANDNING TASAVVUFIY QARASHLARI

Nurmatova Sohibaxon Ismoiljon qizi

Ilmiy rahbar:**Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o'g'li**

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20098735

Annotatsiya: Ushbu matnda Xoja Bahouddin Naqshband va Naqshbandiya tariqatining asosiy g‘oyalari yoritilgan. Unda uning ma’naviy tarbiyasi, ustozlari hamda “xilvat dar anjuman”, ichki zikr, nafsni tarbiyalash kabi tasavvufiy qarashlari haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Shuningdek, Naqshbandiya ta’limotining insonni ma’naviy poklik va komillikka yetaklashi ta’kidlanadi.

Kalit so'zlar: Xoja Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya tariqati, tasavvuf, “Nasoyim ul-muhabbat”, Alisher Navoiy, “xilvat dar anjuman”, zikri xufiya, nafs tarbiyasi, ma’naviy kamolot, komil inson, faqirlik, suhbat, axloqiy poklik, shariat va tariqat.

Abstract: This text highlights the main ideas of Khoja Bahauddin Naqshband and the Naqshbandi order. It briefly provides information about his spiritual upbringing, his teachers, and his Sufi views such as “khalwat dar anjuman” (solitude in the crowd), inner remembrance (dhikr), and self-discipline in refining the ego. It also emphasizes that the teachings of the Naqshbandi order lead a person toward spiritual purity and perfection.

Keywords: Khoja Bahauddin Naqshband, Naqshbandi order, Sufism, Nasoyim ul-muhabbat, Alisher Navoi, “khalwat dar anjuman”, silent remembrance (dhikr khafi), self-discipline of the ego, spiritual perfection, perfect human being (insan al-kamil), spiritual poverty (faqr), companionship (suhbat), moral purity, Sharia and Tariqa.

Kirish

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ulkan lirik meros yaratish bilan birga, nasriy asarlar ham yozib qoldirgan. Bu asarlar o‘zining ilmiy-tarixiy ahamiyati jihatdan mumtoz nasrning o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida mashhurdir. Tazkiranavislikda “Majolis un-nafois” bilan ijodini boshlagan Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns” tazkirasini ijodiy tarjima qilish yo‘li bilan “Nasoyim ul-muhabbat”ni yaratdi.

O‘zbek adabiyoti tarixida tazkirachilik an’analari alohida ajralib turadi. Tazkira arabcha so‘z bo‘lib “zikr”, ya’ni “eslatib o‘tish”, “yozib qo‘yish” ma’nolarini anglatadi. Tazkira milliy va o‘zaro yaqin bo‘lgan adabiyotlar tarixini yaratishda, muayyan davrning adabiy muhitini o‘rganishda, adabiy siymolar va asarlarni tadqiq etishda adabiyotshunoslikning benazir janri sifatida xizmat qiladi. Tazkiraning eng qadimgi namunasi Abu Mansur Saolibiy yaratgan “Yatimat ud-dahr fi mahosini ahl al-asr” (“Zamona ahlining fazilatlari haqida yagona durdona”) asaridir. Bu asar (XII asr) Arab, Ajam, Movarounnahr, Xorazm va Xuroson adabiyoti haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Muhokama va natijalar

Bahouddin Naqshband 1318-yilda Buxoroning Qasri Hinduvon (keyinchalik Bahouddin Naqshband sharafiga Qasri Orifon) qishlog‘ida tavallud topgan. Chindan ham Said Jaloliddin va Bibi Orifa xonadonida tug‘ilgan farzand sharofati bilan qasri Hinduvon qishlog‘i Qasri Orifon deb shuhrat qozondi.

Bahouddinning otasi to‘quvchi hamda o‘yma naqsh soluvchi (naqshband) bo‘lgan. Uning taqdirida bobosining alohida xizmati bor. U so‘fiylar bilan yaqin aloqada edi. Shu sababli nabirasida ilohiyotga katta qiziqish uyg‘otdi. Birinchi piri – ustozi Xoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. Keksa shayx yosh Bahouddin Naqshbandni tarbiyalashni o‘rinbosarlaridan bo‘lmish Amir Sayyid Kulolga topshiradi.

Bobo Samosiy va Amir Sayyid Kulol yosh Bahouddinga oxiratdagi abadiy hayotning ma’nolarini, bu dunyo va u dunyodagi ruhiy, ma’naviy, ilohiy qadriyatlarni tushuntirdilar. Ustozlar Bahouddinga o‘zlik olamiga chuqur kirib, undagi ilohiy fazilatlarni kamol toptirishni o‘rgatdilar.

Bahouddin Naqshband ilm istab, yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan bo‘lmish Qusam shayx oldiga, Naxshab hozirgi Qarshi shahriga boradi. Uch oy undan ta’lim oladi. Bahouddin Naqshbandning bu pirga ixlosi baland bo‘lgan, ayni chog‘da Qusam shayx ham uni o‘z o‘g‘lidek bilib, muridiga cheksiz hurmati tufayli umrining oxirigacha Buxoroda yashab, shu yerda vafot etadi

Naqshbandiya—tasavvuf tariqatlaridan biri bo’lib va Bahouddin Naqshband asos solgandir.Naqshbandiya xo’jagon tariqati negizida yaratilgan bo’lib,Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G’ijduvoniy,Ahmad Yassaviy qarashlarini va ser hikmat ma’naviy tomonlari bilan omuxta etdi,ularga yangicha ruh berib rivojlantirildi.XV-XIX asrlarda hunarmandchilik va savdo bilan shug’ullanadigan shahar aholisi hamda ko’chmanchi chorvadorlar va qishloqlar orasiga keng yoyildi.Naqshbandiya ta’limotining negizida«ko’ngil xudoda bo’lsin-u,qo’l ish bilann band bo’lsin» «dil ba yoru, dast ba kor» shiori yotadi.Naqshbandiyada piru muridlik qoidalari xiyla osonlashtirilgan,sirtdan turib e’tiqod qo’yish, imon mustahkamligi,Haq taologa sidqidildan itoat etish,ixlos va ma’naviy kamolot asosiy o’rin egallaydi.Rasm- rusumlar,odatlarni ko’r-ko’rona ado etish,riyo,soxta dindorlik qoralanadi vaalbatda taqiqlanadi. Axloqiy poklik, qanoatli, sabrli bo’lish, ixtiyoriy faqirlik bilan Allohga intilish yuksak va oliy fazilat hisoblanadi. Naqshbandiyada odamning qadri mansabi, boyligi bilan emas, ma’naviy komilligi bilan o’lchanadi.Unda hunar, kasb egallab,o’z mehnati bilan halol luqma yeb yashash talab qilinadi,tilanchilik,darbadarlik bilan kun kechirish sufiy uchun isnod hisoblangan. Qul,xizmatkor saqlash, o’zganing mehnatidan foydalanish ham man etilgandir.Naqshbandiyaning yuqoridagi shiori tarkidunyochilikka, tekinxo’rlikka qarshi

qaratilgandir.Naqshbandiyadiya manmanlik,kibrlik,sufiy,shayxman deb kerilish,shovqin-suron ko’tarib zikru samo bilan odamlar diqqatini o’ziga qaratish qoralangandir.Naqshbandiyada asosiy talab — qalbni dunyo g’uborlaridan tozalash, o’z nafsi bilan kurashib ruxda charog’onlik topish, qalbda Alloh nomlarini naqshlab borish usullari ishlab chiqilgandir. Zikri xufiya ya’ni yashirin zikr tushish shunga xizmat qilgan. «Tashqaridan xalq bilan, ichkaridan Haq bilan bo’lish»,har bir nafasni Ollox yodi bilan chiqarish, qadamni savob ishlar, ezgu amallar sari qo’yish,mamlakatlar kezib,aziz-avliyolar qabrini ziyorat qilish, g’ofillarni hushyor etish,har qanday holatda qalb ogohligiga erishish — Naqshbandiyning asosiy ma’naviy tarbiya usuli hisoblangan.

Naqshbandiyada pir va murid o’rtasidagi ma’naviy orifona suhbatga katta e’tibor qilingan. Naqshbandiyaga ko’ra, suhbat anjuman ichra bo’lish, bilmaganni bilib olish, yuksalish, karomatlar siru asrori, ilohiyot olami nurlaridan baxramandlik bo’lsa, buning aksi xilvat esa kishini bilimdan, ma’rifatdan mahrum qiladi. Naqshbandiyada o’zini o’zi nazorat qilib borish, olgan bilimlarini dilda mustahkamlash, umrning har bir damini savob ishga, har bir nafsni ma’naviy kamolot uchun sarflash lozimgini takidlab o’tgandir.

O‘rta asr Sharq tasavvuf adabiyoti va ma’naviyati taraqqiyotida Xoja Bahouddin Naqshband alohida o‘rin egallaydi. U kishi Naqshbandiya tariqatining asoschisi sifatida nafaqat tasavvuf tarixida,

balki inson ma’naviyati, axloqiy tarbiya va komil inson g‘oyasining rivojida ham katta ahamiyat kasb etgan. Uning ta’limotida insonning ichki poklanishi, nafsni jilovlash, shariat va sunnatga sodiqlik kabi masalalar muhim o‘rin tutadi.

Asarda Xoja Bahouddin Naqshbandning to‘liq ismlari Muhammad ibn Muhammad Buxoriy ekani qayd etiladi. U kishining ma’naviy tarbiyasi Xoja Muhammad Boboyi Samosiy va Amir Sayyid Kulol kabi mashhur tasavvuf namoyandalari bilan bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, ularning botiniy tarbiyani Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy ruhoniyatlaridan olganliklari ta’kidlanadi. Bu holat Naqshbandiya tariqatining ruhiy va ma’rifiy asoslari chuqur ekanini anglatadi.

Asarda Xoja Bahouddinning ruhiy holati kuchli jazbaga to‘lgan kechada Buxoro qabristonlariga borishi tasvirlanadi. U yerda uchta maqbarada yonib turgan chiroqlarni ko‘radi.Chiroqning yog‘i to‘la bo‘lsa ham, faqat fitilga harakat berilsa yorug‘lik hosil bo‘lishi — insonda mavjud salohiyat faqat riyozat va amal bilan ochilishini bildiradi. Chiroqning yonishi inson iste’dodi va ma’naviy salohiyatini bildirsa, fatilaning harakatga keltirilishi esa bu qobiliyatni amal, riyozat va ilm bilan rivojlantirish zarurligini anglatadi.

Xoja Bahouddin Naqshband ta’limotining asosiy g‘oyalaridan biri — “xilvat dar anjuman ” tamoyilidir. Bu g‘oyaga ko‘ra inson zohiran jamiyat ichida yashaydi, ammo qalban doimo Alloh bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu tamoyil insonni jamiyatdan uzoqlashmasdan turib ham ma’naviy kamolotga erishishga chaqirishi bilan ahamiyatlidir.

Bayt:

[Zohirda begonadek botindan oshno bo‘l,

Bunday go‘zal odat dunyodakam topiladi]

Matnda zikr masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. Naqshbandiya tariqatida asosan ichki va sokin zikrga e’tibor berilgan. Jahriy zikr, samo’ va ortiqcha tashqi ko‘rinishlar ma’qullanmagan. Bu esa tariqatning soddalik, ixlos va botiniy poklikka asoslanganini ko‘rsatadi.

Asarda nafsni tanqid qilish, dunyoga ortiqcha muhabbat qo‘ymaslik, Haqdan boshqa narsalarga bog‘lanib qolmaslik kabi fikrlar ham keng yoritilgan. “Lo iloha illalloh” kalimasi nafsni inkor qilish va haqiqiy ma’bud sifatida Allohni tan olish ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu g‘oyalar insonni ma’naviy yuksalishga va ichki poklikka chorlaydi.

Bayt:

[Haqdan boshqasiga bog‘lanish to‘siq, samarasizdirki,agar ularni uzsang, vosil bo‘lasan]

Xoja Bahouddin suhbatning ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratganlar. U kishining fikricha, yaxshi insonlar va solih kishilar bilan muloqot qilish inson qalbiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun Naqshbandiya tariqatida suhbat ma’naviy tarbiyaning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Xoja Bahouddin Naqshband ta’limoti insonni ma’naviy poklikka, axloqiy komillikka va Haqqa muhabbat ruhida yashashga chaqiruvchi muhim ta’limotdir. Uning qarashlari nafaqat tasavvuf tarixi, balki bugungi kunda ham inson tarbiyasi va ma’naviy hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Naqshbandiya tariqatining asosiy g‘oyalari — ixlos, kamtarlik, sabr, sunnatga amal qilish va nafsni tarbiyalash kabi fazilatlar inson kamolotida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:Alisher

1. Navoiy Mukammal asarlar to„plami. 17 jild. – Toshkent: "Fan" , 2001
2. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: «Istiqlol», 1999. – 1806.110, 108.
3. 3Najmiddin Komilov. Tasavvuf. — T.: «Movarounnahr»—«O‘zbekiston», 2009.—448 b.
4. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. —Т.: «Movarounnahr»—«O‘zbekiston»,2009.—448б
5. http://https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/bahouddin-naqshband-1318-1389